

## MAQSUD SHAYXZODA HAYOTI VA DRAMALARINING

### O'RGANILISHI XUSUSIDA

Muhtaram Ikramova, NamDU

o'zbek tili yo'nalishi 3-kurs tayanch doktoranti

**Annotatsiya.** Maqolada Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodi, shuningdek, “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarining xorijda va o‘zbek adabiyoti, tilshunosligida o‘rganilishiga doir ayrim mulohazalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** drama // tragediya // fojia, lisoniy, nutq.

O‘zbek badiiy adabiyoti va adabiy tilimiz rivojida Maqsud Shayxzodaning shayxona ijod yo‘li alohida o‘ringa ega. Adib Shayxzodaning turli mavzularda yaratilgan she‘rlari va dramalarida o‘zbek tilining yashirin imkoniyatlari, til birliklarining o‘ziga xos nozik ma’nolar ifodalashda lingvopoetik xususiyatlari, jozibasi, bo‘yoqdorligi, ifodaliligi, emotsional-ekspressivligi turli til vositalari yordamida namoyon bo‘ladi. Ijodida betakror tasvirlarni yuzaga keltiruvchi hamda asarlari tilining badiiyatini ta‘minlovchi lingvopoetik vositalardan o‘rinli va unumli foydalanganligi uning so‘z qo‘llashda yuksak mahorat sohibi ekanligidan dalolat beradi.

Ozarbayjon va o‘zbek adibi Maqsud Shayxzoda dramaturgiya maktabi asoschilaridan biridir. N.Karimov adib haqida shunday yozadi: “Maqsud Shayxzoda nomi yodga olinganda tasavvurimizda ulug‘vor, olijanob, ayni paytda, samimiy, mehnatsevar, har qanday sharoitda ham xushchaqchaq insonning nuroniy siymosi paydo bo‘ladi. Shoirdan bizga lirik poemalar, falsafiy mushohadaga boy manzumalar, ruboiylar, ballada, dostonlar, yetuk dramatik asarlar, publitsistik maqolalar meros bo‘lib qoldi” [1].

Shayxzodaning so‘zga muhabbati va ehtiromi o‘zgacha. Bu ehtiromni tasvirlamoq uchun so‘zlarga shayxona yo‘l ko‘rsatadi, ularning chinakam mo‘jiza ko‘rsatishlari uchun imkon yaratadi, ma‘nan va mantiqan “ko‘zi ochilgan” so‘zlar, g‘aroyib mo‘jizalar yaratadi [2].

N.Karimov adib hayot va ijodiy faoliyatining qizg‘in, maroqli, ziddiyatlarga boy achinarli, ammo sharaflil damlarini mashhur adabiyot darg‘alari hikoyalari orqali yuksak ehtirom bilan “Maqsud Shayxzoda” nomli ma‘naviy-ma‘rifiy biografik romanida aks ettiradi.



Adib Shayxzodaning ijodiy jarayonlarini I.G‘afurov, O.Sharafiddinov, B.Qosimov, A.Kattabekov, S.Mirvaliyev, S.Mirzayev, S.Shermuhammedov kabi yirik o‘zbek adabiyotshunoslari ham o‘rganishdi. So‘ng Ozarbayjonda X.Rizo “Maqsud Shayxzodaning badiiy mahorati” (1980-yil) nomli kitobini chop ettiradi. Adib ijodi 2000-yildan qardosh turk xalqi darg‘alari H.Bargan, Yo.Okpinarlar e‘tiborini ham ohangraboy o‘ziga tortdi. E‘tiborlisi, turk olimi Shuayib Qoraqoshning dramaturg hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqoti jahonda o‘rganilgan so‘nggi ishlardandir [3]. Bunda adibning bolalik, o‘spirinlik yillari, Ozarbayjon va Toshkent manzaralari, ijodidagi “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarining o‘ziga xos xususiyatlari monografik planda tadqiq etilgan.

Babahan Muhammad Sharif “Maqsud Shayxzoda shoir, dramaturg, tadqiqotchi” nomli maqolasida adibning “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi drama, sahna tojiga aylangani, voqealar rivoji, kompozitsiyalardagi hayajon va g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan olovli misralar, tilining o‘ziga xos va ravonligi iste‘dodli dramaturg ekanligini ta’kidlaydi. Adib mard inson sifatida “Jaloliddin Manguberdi” dramasini yaratdi va bu fojialar orqali keng ma’noda “o‘zbek Shekspiri” unvoniga sazovor bo‘ldi [4].

Adib tavalludining 112 yilligiga bag‘ishlangan Toshkent davlat transport universitetida o‘tkazilgan “Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman [5] ijodkorning adabiy merosini o‘rganishdagi ishlarning nufuzini yanada oshirdi.

J.Jovliyev matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishidagi “Maqsud Shayxzoda asarlari qo‘lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ijodiy faoliyati nashrlari, xususan, “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” dramalarining variantlari bilan nashr nusxalari materiallarining mushtarak va farqli jihatlarini aniqlash, dramalardagi mafkuraviy talab bilan tushirib qoldirilgan o‘rinlar fojia matnlarida qayta tiklanganligi, birgina “Jaloliddin Manguberdi” dramasining 6 nusxasi mavjudligi, adibning fanga ma’lum bo‘lmagan “Navoiy” opera-librettosi topilgani, Maqsud Shayxzodaning Toshkentga kelgunga qadar Ozarbayjonda 1920-yilda yozilgan “Istiqlol” poemasi topilgani va bu adib ijodining ilk davridagi qimmatli ilmiy ma’lumotlar ekanligi tadqiqot ishida alohida yoritilgan [6].

Maqsud Shayxzoda “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yozish uchun 20 yildan ortiq izlanadi. XV asrda yaratilgan temuriylar, Ulug‘bek davri aks ettirilgan manbalar,



Sharafiddin Ali Yazdiy, A.Samarqandiy, M.Isfizoriy, Mirxond, Xondamir, Bobur, Z.Vosifiy asarlari, shuningdek, V.V.Bartold, E.Bertels, Yu.Yakubovskiy, o‘zbek olimi Qori Niyoziy, eron, turk tarixchilarining asarlarini sinchiklab o‘rganadi, Ulug‘bek haqida maqolalar yozadi [7]. Ehtimol, Navoiy ijodini tadqiq etish jarayonida (1939-1967) “Farhod va Shirin” xamsasidan o‘rin olgan Ulug‘bek madh etilgan baytlar tahlilidan so‘ng, adibda shoh, olimga nisbatan ijodiy muhabbat shu davrlarda uyg‘ongandir.

Adib Shayxzodaning “Mirzo Ulug‘bek” va “Jaloliddin Manguberdi” dramalarining janr va g‘oyaviy xususiyatlari adabiy jarayonlarda H.Abdusamatov [8], M.Mamatvaliyev [9], B.Imomov [10], R.Tursunovlar [11] munosib tahlil etishgan.

“Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida Ulug‘bekning teran fikrli, mulohazali, siyosat va falakkiyot bilimdoni ekanligi fojining 1-pardasi 2-ko‘rinishida timsolning monologida, shuningdek, shu pardaning 3-ko‘rinishida Abdurazzoq nutqidagi satrlarida chuqur anglaymiz va dramaturg mahoratiga tan beramiz.

Dramaturg “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida 2 davr XV asar feodalizmi va sovet davri tarixi ziddiyatli jihatlarini, “Jaloliddin Manguberdi” dramasida esa XII asr va 1939-1945 yillar boshboshdoqliklari, asl vatanparvar timsollar obrazini bir nuqtada badiiy mahorat bilan tasvirlay olgan. Shu jihatdan ham fojining tili g‘oyat mazmundor va shiralidir. Asarning mazmunli va jarangdor ekanligi adib falsafasi bilan bog‘liq holda quyma satrlarning milliy xalqona ruhda bitilgan timsollar nutqidagi (monolog, dialog,) paremlar, individual okkazonal so‘zlar, fonopoetik birliklar, stilistik figuralar, folklor namunalari o‘z ifodasini topgan.

### References:

1. Каримов Н. Фидойилар. – Тошкент: Фан, 1990. – Б.43.
2. Махмудов Н. Сўз шайхнинг мўжизалари // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2009. – № 7. – Б.10.
3. Şuayip Karakaş. Maksud Şeyxzase ve Mirza Uluğbek piyesi. Türkiyat türklük bilimi araştırmaları dergisi, Güz, 2010 sayı. 7. – S. 13-64.
4. Babahan Muhammed Şerif. Maksut Şeyhzade Şair, Dramaturg ve Araştırmacı. Kardeş Kalemler, 2019 sayı. 149.
5. Maqsud Shayxzodaning adabiy merosi va zamonaviylik // Xalqaro ilmiy – amaliy anjuman maqolalari to‘plami. – Toshkent, 2020. – 173 b.



6. Жовлиев Ж. Мақсуд Шайхзода асарлари қўлғамаларининг матний қийсий татқиқи Фил. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент, 2022. – Б.11-12.
7. Зокиров М. Мақсуд Шайхзода. – Тошкент, 1969. – Б.139.
8. Абдусаматов Ҳ. Драматургия ва ҳаёт. – Тошкент: Ўзбекистон, 1974.
9. Маматвалиев М. “Жалолиддин Мангуберди” фожиаси тўғрисида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1988. – №6. – Б. 8-12.
10. Имомов Б. Трагедия ва характер. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1977. – 176 б.
11. Турсунов Р. Мактабларнинг ихтисослаштирилган XI синфларида фожа жанрини ўрганиш” (Мақсуд Шайхзоданинг “Мирзо Улуғбек” асари мисолида). Педагогика фанлари номзоди ... дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 130.

